



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafuz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	

FAN VA TILNI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O'QITISH (CLIL)

UDK: 37.016:81

M. D. Boynazarova

Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

ORCID: 0009-0001-2489-4921

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim jarayonida ta'lim mazmunining ahamiyati hamda samarali darslarni tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Ta'limning o'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, interfaol metodlar va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining o'quvchilarda fan bilimlari bilan bir qatorda til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'qitish usullari, samarali dars, interfaol ta'lim, CLIL, zamonaviy ta'lim, mustaqil ta'lim, ijodkorlik.

Abstract: The importance of educational content and the organization of effective lessons in modern education are analyzed. The role of education in developing students' essential knowledge, skills, and values is substantiated. In addition, the significance of interactive methods and the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach in enhancing both subject knowledge and language skills is highlighted.

Key words: education, teaching methods, effective lesson, interactive learning, CLIL, modern education, independent learning, creativity.

Аннотация: Анализируется значение содержания образования и организации эффективных занятий в условиях современного образовательного процесса. Обосновывается роль образования в формировании у обучающихся необходимых знаний, умений и ценностей. Также раскрывается значимость интерактивных методов и подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning) в развитии как предметных знаний, так и языковых навыков.

Ключевые слова: образование, методы обучения, эффективное занятие, интерактивное обучение, CLIL, современное образование, самостоятельное обучение, креативность.

KIRISH

Ta'lim inson shaxsining rivojlanishida eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarga bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarni egallash imkonini beradi hamda ularning o'quv jarayonidagi shaxsiy va akademik rivojida muhim rol o'ynaydi.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilar egallaydigan barcha bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar ta'lim mazmunini tashkil etadi. Bu mazmun darslar, darsliklar, onlayn resurslar hamda turli sinf faoliyatlari orqali yetkaziladi. O'qituvchining asosiy vazifasi ushbu materiallarni samarali, mantiqiy va mazmunli tarzda tashkil etib, o'quvchilarning uni tushunishi, amalda qo'llashi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga erishishdan iborat.

Zamonaviy ta'lim jarayonida darslar dinamik, qiziqarli va o'quvchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Samarali dars o'quvchilarni faol ishtirok etishga, fikr almashishga hamda o'z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi faqatgina tushuntiruvchi emas, balki o'quvchilarni rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi mentor sifatida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi bugungi o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish maqsadida doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Tarixan qaralganda, ilgari darslar asosan tushunishga emas, balki yodlashga asoslanganligi sababli ko'pincha zerikarli bo'lgan. Biroq bugungi kunda jamiyat tanqidiy fikrlay oladigan, samarali muloqot qiladigan hamda innovatsion tarzda muammolarni hal eta oladigan shaxslarni talab etmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, dolzarb va samarali qilishga xizmat qiluvchi turli innovatsion o'qitish strategiyalaridan foydalanmoqdalar.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi yillarda bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ulardan eng muhimlaridan biri – o'qituvchi markazli ta'limdan o'quvchi markazli ta'limga o'tish jarayonidir.

Ilgari dars jarayonida asosiy rolni o'qituvchi bajarib, o'quvchilar esa asosan tinglovchi vazifasini bajargan. Biroq bugungi kunda bu an'ana tubdan o'zgargan: o'quvchilar endilikda faqat passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida dars jarayonida qatnashadi, hatto ayrim hollarda darsni o'zlari olib borishga ham jalb etiladi. Bu esa avvalgi tizimga nisbatan ancha samarali natijalarni beradi.

O'quvchi markazli ta'lim yondashuvi ta'lim jarayonidagi e'tiborni o'qituvchi nimani o'rgatayotganidan ko'ra, o'quvchi nimani o'zlashtirayotganiga qaratadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchilar bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni tajriba, izlanish va refleksiya orqali mustaqil ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida qaraladi ^[1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv orqali hatto darsda kam faol bo'lgan o'quvchilar ham mashg'ulotlarga tayyorlanadi, mustaqil izlanadi, yangi bilimlarni o'rganadi va guruhdoshlari bilan muloqot qiladi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilarga guruhli ishlarda, sinf muhokamalarida va muammoli vazifalarni hal etishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Natijada o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadi va ularning kommunikativ ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Yana bir samarali yondashuv – loyiha asosida o'qitish (project-based learning) hisoblanadi. Ushbu usul asosan real hayotiy vazifalarga asoslanib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzuda tadqiqot olib borishi yoki taqdimot tayyorlashi mumkin.

Bu esa o'quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, mustaqil ishlash hamda mas'uliyatni his etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida bugungi kunda o'qituvchilar dars jarayonida turli raqamli vositalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Jumladan, prezentatsiyalar, videomateriallar, onlayn testlar hamda Kahoot kabi interaktiv platformalar darslarni yanada qiziqarli va o'quvchilar uchun jalb etuvchi qilishga xizmat qiladi.

Masalan, hozirgi kunda o'quvchilar yangi so'z boyligini mustahkamlash, autentik videolarni tomosha qilish hamda hatto til egasi bo'lgan insonlar bilan muloqot qilish imkonini beruvchi ko'plab onlayn platformalardan foydalanishlari mumkin.

Texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, balki o'qituvchilarga tezkor fikr-mulohaza (feedback) berish hamda o'quvchilarning rivojlanish jarayonini samarali tarzda kuzatib borish imkonini ham yaratadi.

Zamonaviy ta'limdagi eng samarali metodlardan biri – CLIL (Content and Language Integrated Learning) hisoblanadi. CLIL – bu fanlarni chet tilida o'qitishga asoslangan yondashuv bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham fan bilimlarini, ham til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metod o'quvchilarga tilni alohida fan sifatida emas, balki yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi ^[2]. Ya'ni, tarix yoki tabiiy fanlar kabi akademik fanlar chet tilida – odatda ingliz tilida – o'qitiladi.

Mazkur yondashuvning ommalashishiga asosiy sabab – uning ikki yo'nalishda bir vaqtning o'zida samarali natija berishidir: o'quvchilar ham fan mazmunini o'zlashtiradi, ham til ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, o'quvchilar tarix fanini o'rganish jarayonida nafaqat o'z mamlakatlari tarixini bilib oladi, balki yangi so'zlar, grammatik tuzilmalar va talaffuzni ham amaliyotda qo'llash orqali mustahkamlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

An'anaviy darslar bilan taqqoslaganda, CLIL asosidagi mashg'ulotlar odatda yanada faol va qiziqarli tarzda tashkil etiladi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri – "amal orqali o'rganish" (learning by doing) hisoblanadi.

O'quvchilar chet tilida taqdimotlar tayyorlaydi, posterlar yaratadi va nutq so'zlaydi. Natijada ular nafaqat o'rganilayotgan tilni qo'llashda o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, balki mazkur fan bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni ham egallaydi. Bu jarayonda til faqatgina so'z va grammatik qoidalarni yodlash vositasi sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida qo'llaniladi. Bu esa o'qitish jarayonini yanada amaliy va o'quvchilarning kelajak ehtiyojlariga mos qiladi.

CLIL yondashuvi, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. U ikki yo'nalishga yo'naltirilgan ta'lim shakli bo'lib, unda til va fan mazmuni bir vaqtning o'zida rivojlantiriladi. Ushbu yondashuv faol o'rganish, hamkorlik va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi ^[3].

Yevropa ta'lim tizimlarida tillar o'quv dasturlarining muhim qismi sifatida qaralmoqda. Shu bois, til ta'limi sifatini oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash, shuningdek, samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilishi lozim ^[4].

O'quvchilar bir fan doirasida boshqa tilda ta'lim olganida, ular tahlil qilish, taqqoslash va o'z fikrlarini aniq ifodalashga majbur bo'ladi. Bu esa ularning nafaqat til ko'nikmalarini, balki kognitiv (fikrlash) qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, CLIL darslari ko'pincha o'quvchi markazli bo'lib, guruhli ishlar, hamkorlik va interaktiv topshiriqlar orqali o'quvchilarning birgalikda ishlashini ta'minlaydi.

CLIL darslarida o'qituvchilarning roli ham nihoyatda muhimdir. Ular darsni shunday loyihalashtiradiki, u o'quvchilarga ham fan mazmunini, ham tilni samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bois o'qituvchilar o'quvchilarning darajasiga mos materiallarni tanlaydi hamda turli faoliyat va muhokama usullaridan foydalanib, darsni tushunarli va qiziqarli qiladi.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganayotganlar soni tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, ingliz tilida yaratilayotgan adabiyotlar soni ham ko'paymoqda. Ko'pchilik mutaxassislar asarni asl tilida o'qish uning mazmunini chuqurroq anglash va undan ko'proq zavq olish imkonini berishini ta'kidlaydi. CLIL yondashuvi orqali o'quvchilar nafaqat o'quv adabiyotlaridagi matnlarni, balki mashhur asarlarni ham asl tilida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning tushunish darajasini oshirish bilan birga, kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

CLILning yana bir muhim afzalligi shundaki, o'quvchilar yangi mavzularni boshqa tilda o'rganish jarayonida tabiiy ravishda nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi va asta-sekin o'sha tilda fikrlay boshlaydi. Bu jarayon ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda tilni faqat o'quv predmeti emas, balki amaliy vosita sifatida qo'llashga yordam beradi. CLIL fan va tilni birgalikda o'qitish orqali o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish bilan birga, fan bo'yicha chuqur bilimlarni ham rivojlantiradi [5].

Bundan tashqari, CLIL XXI asrda muhim ahamiyatga ega bo'lgan "soft skills" – ijodkorlik, muammoni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bir vaqtning o'zida ikki maqsad – til va fan o'rganayotgan o'quvchilar yanada mustaqil va motivatsiyaga ega bo'ladi.

Shuningdek, CLIL o'quvchilarni tobora globallashtirib borayotgan dunyoga tayyorlaydi. Ularni turli madaniyatlar bilan tanishtiradi, xalqaro masalalar yuzasidan tanqidiy fikrlashga undaydi hamda xilma-xillikka hurmatni shakllantiradi. Shu jihatdan CLIL nafaqat ta'limiy yondashuv, balki madaniyatlar va g'oyalarni o'rtasidagi ko'prik vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotchilar CLIL asosida ta'lim olgan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga nisbatan yuqoriroq natijalarga erishishini ta'kidlaydi. Chunki ushbu yondashuv umumiy kognitiv rivojlanish va akademik muvaffaqiyatni oshiradi. Biroq CLILning afzalliklari faqat akademik natijalar bilan cheklanmaydi – u shaxsiy rivojlanishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos mazmun orqali CLIL ularning diqqatini jalb qiladi hamda o'rganish jarayonini yanada jonli va samarali qiladi.

CLILning zamonaviy ta'limda ommalashishining asosiy sabablaridan biri uning kuchli motivatsion ta'sirga ega ekanligidir. O'quvchilar fanlarni chet tilida o'rganish jarayonida nafaqat yangi bilimlarga ega bo'ladi, balki boshqacha fikrlash va muloqot qilishga ham o'rganadi. Bu esa ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va yutuq hissini shakllantiradi.

Shuningdek, CLIL tabiiy o'rganish muhitini yaratadi. Agar til faqat grammatik qoidalarni yodlash orqali o'rganilsa, bu zerikarli bo'lishi mumkin. Biroq til real maqsad – tushunish, tushuntirish va g'oyalarni o'rganish vositasi sifatida qo'llanilganda, o'quv jarayoni ancha qiziqarli va samarali bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, CLIL yangi avlod o'quvchilarini shakllantirishga yordam beradi – faol, qiziquvchan va o'ziga ishongan shaxslar bo'lib, ular samarali muloqot qila oladi va o'zgarishlarga moslasha oladi. CLIL darslarni haqiqiy tajribalarga aylantiradi, bunda bilim va til birgalikda rivojlanadi.

Takliflarga kelsak, o'qituvchilar CLIL metodikasini samarali qo'llashni o'rganish uchun professional tayyorlikdan o'tishlari lozim, shunda ular til va fan mazmunini birlashtira oladi. Shuningdek, CLIL asosidagi materiallar sonini ko'paytirish va rivojlantirish zarur. Til va fan o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlik darslarni yanada samarali tashkil etish uchun rag'batlantirilishi lozim. Bundan tashqari, CLILni O'zbekistonning mahalliy ta'lim kontekstiga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bill Nave (Ed.). Publisher: Harvard Education Press, 2015. Page: Introduction (pp. 1–2).
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press. Page: 1–2.
3. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Macmillan Education. Page: 9.
4. Marsh, D. (2002). CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential. Jyväskylä: University of Jyväskylä, on behalf of the European Commission. Page: 8.
5. Bridge TEFL Blog – What is CLIL? The Global Trend in Bilingual Education.
6. Teacheracademy.eu – Introduction to CLIL: How to Get 2 for 1.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.